



ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AYOLLARNING ROLI

Majitova Mahbuba

Toshkent amaliy fanlar universiteti "Pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14945531>

Annotatsiya: ushbu maqolada Navoiy ayollarning jamiyatdagi o'rnini faqat oilaga tegishli emas, balki kengroq ijtimoiy muhitga ham taalluqli deb bilgan. U ayollarning faqat o'z oilasi va uy ishlarida cheklanishini emas, balki ilm-fan, san'at, adabiyot va siyosatda ham faol ishtirok etishini muhim deb hisoblagan. "Farhod va Shirin" kabi asarlarda, ayol obrazlari bir tomondan sevgining timsoli bo'lsa, boshqa tomondan, ularda insoniyatning yuqori axloqiy fazilatlarini va ijtimoiy mas'uliyatlari mujassam bo'lganligi haqida so'z brogan.

Аннотация: В этой статье Навои рассматривал место женщин в обществе как относящееся не только к семье, но и к более широкой социальной среде. Она считала важным, чтобы женщины не ограничивались только своей семьей и домашними делами, но также активно участвовали в науке, искусстве, литературе и политике. В таких произведениях, как "Фархад и Ширин", говорится о том, что женские образы являются, с одной стороны, воплощением любви, а с другой-воплощением высоких нравственных качеств и социальной ответственности человечества.

Annotation: in this article, Navoi saw women's place in society not only as belonging to the family, but also as referring to the wider social environment. She felt it was important that women were not limited to their own family and domestic work, but also actively involved in science, art, literature, and politics. In works such as "Farhad and Shirin", the image of a woman is the embodiment of love on the one hand, and on the other, the word brogan that high moral qualities and social responsibilities of humanity are embodied in them.

Kalit so'zlar: Xamsa, ta'lim, ma'naviy, axloqiy, ishq-muhabbat, tarbiya, urf-odatlar, odamiylik, vatanparvarlik, mas'uliyat, timsol, sevgi, siyosat.

Ключевые слова; Хамса, образование, духовное, нравственное, романтическое, воспитание, традиции, человечность, патриотизм, ответственность, эмблема, любовь, политика.

Keywords; Hamsa, education, spiritual, moral, love, upbringing, customs, humanity, patriotism, responsibility, embodiment, love, politics.

1 Kirish.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ayollar obrazlarini yaratishdek muhim ishga hech bir shoir Alisher Navoiydek katta ahamiyat bermagan. Vafo va sadoqat, ishq-muhabbat bobida go'zal ayollar timsolini, ularning yuksak ma'naviyatini o'z g'azallarida juda chiroyli ifodalab bergan. Xotin-qizlarga nisbatan salbiy munosabat hukm surgan XV asrda Navoiy bolalar tarbiyasida ayollar - onalarni otalar bilan barobar o'ringa qo'yadi. Ota va ona birdek hurmat-ehtiromga munosib ekanligini bayon etadi:

Boshni fido ayla ato qoshiga,
Jismni qil sadqa ona boshiga.
Tun-kuningga aylagali nurfosh,
Birisin oy angla, birisin - quyosh.

Alisher Navoiy "Hayrat-ul-abror" dostonida farzandlarning ota-onaga hamisha sodiq bo'lishi, ularga samimiy xizmat qilishi zarurligini uqtiradi. "Farhod va Shirin" dostonidagi Shirin obrazi oqil va dono, ijodkor, vafodor, vatanparvar kabi fazilatlarga ega bo'lgan mukammal ayol obrazidir. Shirin "Men insonman, shuning uchun ham chin insonni sevaman", deydi. Ayollardan tadbirkor, olima, davlat arboblari chiqishiga ishongan Navoiy o'z qarashlarini Mehinbonu obrazi orqali ifodalab beradi.

Mehinbonu ki donishparvar erdi,
Bilik ahliga shohi sarvar erdi.

Navoiy tasvirlagan ayollar har jihatdan yuksak qobiliyat sohibalaridir. Uning Laylisi erkin sevgini istaydi, o'sha zamon urf-odatlariga la'natlar o'qiydi. Shirin timsolida vatanparvarlik, odamiylikni ko'ramiz. Mehinbonu adolat homiysi, davlat boshlig'i, buyuk iste'dod egasidir. Lubatiy Chiniy kamtar, bahodir ayol timsolidir. Navoiy yaratgan timsollarda XV asrdagi ayolga past nazar bilan qaralgan tuzumda og'ir kunlarni



ko'rgan, ezilgan va xo'rlangan ayollar nufuzini ko'tarishga intiladi. Ayniqsa, davrdan norozilikni Layli tilidan shunday ifodalaydi:

Layliki baloiy furqati bor,
Ikki Majnuncha mehnati bor.
Umr anga g'alat havasdur, axir,
Jon tarki ajab emasdur axir.

"Sab'ai Sayyor" asaridagi chang chaluvchi Dilorom timsoli, vafodor ayol qiyofasi o'ziga xos, go'zal ko'rinishlar orqali ifodalab beradi. "Saddi Iskandariy" dostonidagi Chin go'zali Lubatiy Chiniy obrazi ham jasur, kuchli, mard, janglarda o'z matonati bilan dushmanlarga qarshi mardonavor kurashib, faqat g'alaba qozongan mukammal qahramon ayol timsolidir. Alisher Navoiy — o'zbek adabiyotining ulkan shaxslaridan biri bo'lib, nafaqat o'zining she'riyatida, balki jamiyatdagi ijtimoiy masalalar, axloqiy qadriyatlar va inson huquqlari masalalariga ham katta e'tibor qaratgan. Ayollar mavzusi Navoiy asarlarida muhim o'rin tutadi, lekin uning asarlarida ayollarning roli haqida ko'plab ehtimoliy tafakkurlarni kengaytirish mumkin. Ushbu maqolada,

2. Asosiy qism

Alisher Navoiy asarlarida ayollarning rolini oshirish zarurligi, ular bilan bog'liq fikrlarni yanada rivojlantirish va zamon talablari nuqtai nazaridan ularning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatini yanada yuksaltirish muhokama qilinadi. Alisher Navoiy yuqoridagi kabi ayollar obrazini yaratish bilan davr oldiga muhim ijtimoiy muammolarni qo'yadi. Shoirning besh asr avval orzu qilgan o'y va istaklari bugun ozod va obod mamlakatimizda o'z ijobatini topmoqda. Bugun yurtimizda ayollar qadr topgan. Ular jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etib, o'zlarining go'zal ma'naviyati, bilim va ma'rifati bilan millatimiz sha'nini, yurt ravnaqini ko'tarishga katta hissa qo'shmoqdalar. Alisher Navoiy o'z asarlarida ayollarni bir tomondan go'zallik va muhabbat ramzi sifatida, ikkinchidan esa axloqiy va ijtimoiy qiyofada tasvirlaydi. Navoiy ayolni faqat tashqi ko'rinishi bilan emas, balki uning ichki go'zalligi, fazilatlar va ma'naviy dunyosini ham yuqori baholagan. U ayolni haqiqiy ma'noda insoniyatning bir bo'lagi sifatida ko'radi va uning jamiyatdagi o'rni, ilm va ma'rifat bilan bog'liq ijtimoiy rollarini ta'kidlaydi. Navoiy asarlarida ayollarning ta'lim olishiga katta e'tibor qaratiladi. U ilmning barcha odamlar uchun, jumladan, ayollar uchun ham muhimligini ta'kidlagan. "Xamsa" asaridagi ko'plab qahramonlar, jumladan ayollar, nafaqat go'zallik va sevgi ramzi sifatida, balki o'z vaqtida ma'rifatli va axloqiy yuksak shaxslar sifatida tasvirlanadi. Ayollarning ilm olish orqali ijtimoiy tizimga yanada faol ishtirok etishini ko'rsatish, ularning jamiyatdagi o'rnini oshirishga yordam beradi. Navoiy o'z asarlarida ayollarning bilim olish orqali hayotdagi haqiqiy maqsadlarini topishlari mumkinligini ta'kidlagan. Navoiy ayollarning jamiyatdagi o'rnini faqat oilaga tegishli emas, balki kengroq ijtimoiy muhitga ham taalluqli deb bilgan. U ayollarning faqat o'z oilasi va uy ishlarida cheklanishini emas, balki ilm-fan, san'at, adabiyot va siyosatda ham faol ishtirok etishini muhim deb hisoblagan. "Farhod va Shirin" kabi asarlarda, ayol obrazlari bir tomondan sevgining timsoli bo'lsa, boshqa tomondan, ularda insoniyatning yuqori axloqiy fazilatlar va ijtimoiy mas'uliyatlari mujassam bo'lgan. Bu ayollar jamiyatda o'z o'rnini topishi, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ayollarni ta'lim va ma'rifatga targ'ib qilish. Navoiy o'z asarlarida ayollarga ta'lim olishning zarurligini ko'rsatadi. Shoir, o'z asarlarida ayollarni bilim va ma'rifat olishga da'vat qiladi. O'zi shaxsiy ravishda ilm-fan va san'atga katta e'tibor qaratganligi sababli, ayollarni ham shu yo'lda rivojlanishga chaqirgan. "Muhokamat al-lug'atayn" asarida ayollarni ilmiy va madaniyatli bo'lishga targ'ib qilish, jamiyatdagi o'z o'rnini topish uchun ta'lim olish muhimligini alohida ta'kidlaydi. Navoiy, ayollarni nafaqat oilaviy rolda, balki ilm-fan va madaniyatdagi yetakchi shaxs sifatida ham ko'rishni xohlaydi. Alisher Navoiy asarlarida ayollarning jamiyatdagi roli ham diqqatga sazovor. U, bir tomondan, ayollarning ustun fazilatlarini ta'kidlaydi, boshqa tomondan esa ular bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muammolarni ham ko'rsatadi. Navoiy ayollarni jamiyatning mustahkam asosini tashkil etuvchi guruh sifatida ko'radi. Ularning nafaqat oilaviy hayotdagi, balki ijtimoiy va ma'naviy sohalaridagi ahamiyati hamda o'zni yuqori baholanadi. Shoir o'zining "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarida ayollarga nisbatan qo'llaniladigan me'yor va qadriyatlarni baholaydi. Ayollarga, xususan, ma'naviy va ilmiy



sohalarda imkoniyat yaratish, ularni yashirin iste'dodlarini rivojlantirishga chorlaydi. Alisher Navoiy, ayollarning axloqiy va ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Ayol faqat tashqi ko'rinishi yoki go'zalligi bilan emas, balki uning ichki dunyosi, vijdoni va ma'naviy yuksakligi bilan ham qadrlanadi. Navoiy o'z asarlarida ayollarning axloqiy fazilatlarini yuksaltirishni, ularni o'zining haqiqiy tabiatini anglashga va jamiyatga foyda keltiradigan yuksak qadriyatlarni anglashga chaqiradi. Alisher Navoiy asarlarida ayollarning rolini oshirish uchun ayollar obrazlariga ko'proq urg'u bergan. Asarlarida ayollar, ularning hayotdagi o'rni, shahodatlar va m'naviy qadr-qimmati ko'plab misollarda ifodalangan. Shoir ayollarning faqat tashqi go'zalligini emas, balki ularning ruhiy va axloqiy fazilatlarini, immonini, aql-zakovati va muqaddasligini ham ulug'laydi. Uning asarlarida ayollarni ko'pincha "yurakni zabt etgan" yoki "muhabbatning ramzi" sifatida tasvirlanadi. Masalan, "Xamsa" asarida ayollarga bo'lgan mehr, ehtiros va samimiyatni ko'rish mumkin. Bu shoirning ayollarga nisbatan ijobiy qarashlarining yaqqol ifodasi hisoblanadi.

3. Muhokama

Alisher Navoiy asarlarida ayollarning jamiyatdagi roli ham diqqatga sazovor. U, bir tomondan, ayollarning ustun fazilatlarini ta'kidlaydi, boshqa tomondan esa ular bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muammolarni ham ko'rsatadi. Navoiy ayollarni jamiyatning mustahkam asosini tashkil etuvchi guruh sifatida ko'radi. Ularning nafaqat oilaviy hayotdagi, balki ijtimoiy va ma'naviy sohalaridagi ahamiyati hamda o'rni yuqori baholanadi. Shoir o'zining "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarida ayollarga nisbatan qo'llaniladigan me'yor va qadriyatlarni baholaydi. Ayollarga, xususan, ma'naviy va ilmiy sohalarida imkoniyat yaratish, ularni yashirin iste'dodlarini rivojlantirishga chorlaydi. Ayollarni ta'lim va ma'rifatga targ'ib qilish ayollarga ta'lim olishning zarurligini ko'rsatadi. Shoir, o'z asarlarida ayollarni bilim va ma'rifat olishga da'vat qiladi. O'zi shaxsiy ravishda ilm-fan va san'atga katta e'tibor qaratganligi sababli, ayollarni ham shu yo'lda rivojlanishga chaqirgan. "Muhokamat al-lug'atayn" asarida ayollarni ilmiy va madaniyatli bo'lishga targ'ib qilish, jamiyatdagi o'z o'rnini topish uchun ta'lim olish muhimligini alohida ta'kidlaydi. Navoiy, ayollarni nafaqat oilaviy rolda, balki ilm-fan va madaniyatdagi yetakchi shaxs sifatida ham ko'rishni xohlaydi. Navoiy asarlarida ayollarni faqat ijtimoiy yoki siyosiy nuqtai nazardan emas, balki diniy va ma'naviy nuqtai nazardan ham o'rganish mumkin. Shoir, ayollarga mehr va muhabbat bilan qarashni, ular orqali insonning eng oliy axloqiy fazilatlarini kashf etishni targ'ib qiladi. Ularning ma'naviy o'sishi va poklanishi, jamiyatning yaxshilanishi uchun zarur deb hisoblaydi. "Layli va Majnun" kabi dostonlarida ayollarni ma'naviy olamning eng yuksak cho'qqilariga erishgan shaxslar sifatida tasvirlash, ularning roli va ahamiyatini oshirishga bo'lgan yondashuvini ko'rsatadi. Ayollarning o'rni va roli juda katta ahamiyatga ega. Ularning go'zalligi, aqlli va ma'naviy o'sishi, jamiyatdagi o'rni va oilaviy hayotdagi muhim roli Navoiy asarlarida keng yoritilgan. Shoir, ayollarning bilim olishlari, o'z huquqlarini anglashlari va ijtimoiy rollarini kengaytirishlari kerakligini ta'kidlagan. Shuning uchun, Alisher Navoiy asarlarida ayollarning roli oshishi nafaqat adabiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Ayolning ijtimoiy ahamiyat asarlarda faqat muhabbat va go'zallik bilan bog'lanmagan. U ayolni, butun jamiyatning ma'naviy rivojlanishida katta o'rin tutuvchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Ayollarning bilim olishlari, axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirishlari, va o'zlarining jamiyatdagi roli orqali umumiy taraqqiyotga hissa qo'shishlari mumkin. Bu fikrlarni yanada rivojlantirish, Navoiy asarlarida mavjud ayol obrazlarini yangi davr talablari bilan bog'lash zaruriyatini yaratadi. Zamonaviy jamiyatda ayollarning roli yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy asarlaridagi ayol obrazlarini bugungi kundagi ayollarning huquqlari, ta'lim olish imkoniyatlari, jamiyatdagi o'rni bilan bog'lash, ularning ijtimoiy faoliyatini oshirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bugungi kunda, Navoiy ta'lim va ma'naviyatni yuksaltirishga chaqirgan g'oyalari, ayollarga nisbatan adolat va tenglikni ta'minlash zaruriyatini anglashga yordam beradi.

4. Xulosa

Alisher Navoiy asarlarida ayollarning o'rni va roli haqida ko'plab qimmatli fikrlar mavjud. U ayollarning ta'lim olish, axloqiy rivojlanish va jamiyatdagi ijtimoiy o'rnini oshirishni muhim deb bilgan. Uning asarlarida ayol faqat go'zallik va muhabbat ramzi bo'lib qolmasdan, jamiyatning ruhiy va axloqiy rivojlanishiga katta hissa qo'shuvchi shaxs sifatida tasvirlangan. Navoiy ta'lim va ma'naviyatni yuksaltirishga



chaqirib, ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashni istagan. Bugungi kunda uning g'oyalari, ayollarni ijtimoiy hayotda yanada faol va ma'rifatli qilishga xizmat qilishi mumkin. Alisher Navoiy asarlarida ayollarning roli ko'plab jihatlarida, ularning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatini ko'rsatuvchi tasvirlar orqali ko'rsatilgan. Shoir ayollarni faqat tashqi go'zallikda emas, balki ma'naviyat va axloqiy fazilatlarida ham yuksak baholagan. Ayollarga ilm-fan, ta'lim, va adolat nuqtai nazaridan yondashgan holda, ularning o'rni jamiyatda oshishi uchun kerakli imkoniyatlarni yaratishga chaqirgan. Navoiy, ayollarni jamiyatning eng oliy qadriyatlarini shakllantiruvchi, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanish uchun muhim kuch sifatida ko'rgan va ular orqali jamiyatning yaxshilanishini targ'ib qilgan. Bu jihatdan Alisher Navoiy asarlari hozirgi kunimizga ham katta ahamiyatga ega, chunki ularning ma'naviy yuksakligi va inson huquqlarini hurmat qilishga bo'lgan yondashuvi o'z davridan keyingi avlodlar uchun ham namuna bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. "Vafo qilsang". Toshkent, 2014.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, Yigirma jildlik. Toshkent, 1993.
3. Alisher Navoiy. Asarlar, 15 jildlik. Toshkent, 1967.
4. Alisher Navoiy. "Saddi Iskandariy".
5. www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. Alisher Navoiy ijodidan namunalar. "Quyoshlig' istasang, kasbi kamol et...". Toshkent, Sahhof, 2021.
7. Nurboy Jabborov. "Maoniy ahlining sohibqironi". Toshkent, Adabiyot, 2021.
8. Olimjon Davlatov. "Ma'nolar xazinasi". Toshkent, 2021.